



## MILLIY AN'ANALARIMIZNI DUNYOGA TANITISHDA “BAXSHICHILIK” SAN'ATINING TUTGAN O'RNI

**Pardaxol Normamatova Ochildiyevna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti katta o'qituvchisi  
Tel+998994542373

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008853>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-May 2023 yil

Ma'qullandi: 28-May 2023 yil

Nashr qilindi: 06-June 2023 yil

### KEY WORDS

*Baxshichilik, Festival,  
YUNESKO, ISESCO, Alpomish,*

### ABSTRACT

*Ushbu ilmiy maqolada mamalakatimizning janubiy gavhari hisoblangan Surxondaryo viloyatida madaniy sohaning rivojlanay milliy an'analarimizni mujassamlashtirgan “Baxshichilik” Halqaro festivallarning o'tkazilishi. Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlari o'zlarining milliy urf-odatlarini, an'analarini, san'ati, xalq og'zaki ijodi ijrochilari asarlari hamda hunarmandchiligini, tashkil etilgan maydonda o'zlarining rang-barang dasturlarini xorijlik hamda yurtimizning turli joylaridan tashrif buyurishgan mehmonlar, mahalliy aholi va tomoshabinlar e'tiboriga namoyish etganliklari yoritib berilgan.*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida” gi PQ-3990-son qaroriga muvofiq ushbu xalqaro festival har ikki yilda O'zbekistonning turli xil hududlarida bir marta an'anaviy o'tkazilishi belgilangan. Shungako'ra, I-Xalqaro Baxshichilik festivali 2019-yil 5-10 aprel kunlari Surxondaryo viloyati Termiz shahrida yuqori saviyada turli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tashkil etildi.[13990 s.q]

Shu munosabat bilan 4 aprel kuni festival oldidan so'nggi tayyorgarlik mashqlari yakunlanib, barcha viloyatlar pavilyonlari tashkil etilib, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar shuningdek, Surxondaryo viloyatining barcha shahar va tumanlari o'zlarining milliy urf-odatlarini, an'analarini, san'ati, xalq og'zaki ijodi ijrochilari asarlari hamda hunarmandchiligini, o'zlari uchun belgilab berilgan Termiz shahridagi san'at saroyi hududida tashkil etilgan maydonda o'zlarining rang-barang dasturlarini xorijlik hamda yurtimizning turli joylaridan tashrif buyurishgan mehmonlar, mahalliy aholi va tomoshabinlar e'tiboriga namoyish etishdilar.

Termiz shahrida tashkil etilgan ushbu anjumanda jahonning 74 davlatidan 160 dan ziyod ishtirokchi va YUNESKO, Islom hamkorlik tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tuzilmasi – ISESCO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar vakillari, shuningdek,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning “Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida” gi PQ-3990-son qarori 2018.1.11.

Qirg'iziston, Qozog'iston, Tojikiston, Turkmaniston, Afg'oniston kabi davlatlardan faxriy mehmonlar qatnashdi<sup>[2.702 b]</sup>

Mazkur festival doirasida shuningdek ichki tanlov - Respublika baxshilar musobaqasi ham ko'tarinki ruhda tashkil etildi. Ko'rik tanlov davomida 100 dan ortiq mahalliy baxshi, jirov va oqinlar ishtirok etgan bo'lib, ular 3 ta yo'nalishda, xususan ochiq ovoz va ichki ovozda doston aytishlari belgilangan. Tanlov tashkiliy qo'mitasi baxshilarning dostonlarni yaxshi bilish shartini ustun qo'yib, istalgan dostondan parcha aytib berishini so'rashi belgilandi.<sup>[358 b]</sup> Bunda ichki ovozda doston aytuvchilar "Alpomish", tashqi ovozda aytuvchilar esa "Oshiq G'arib va Shohsanam", jirovlar "Edigey" va oqinlar erkin mavzuda chiqish qilishi so'raladi.

Yakunda, mazkur tanlov natijasiga ko'ra ishtirokchilar 3 ta nominatsiyaga ko'ra alohida mukofotlar bilan taqdirlanadi. Unga muvofiq:

"Eng yaxshi ayol baxshi",

"Eng yoshi ulug' baxshi",

"Eng yosh baxshi" va bundan tashqari 20 nafar ishtirokchilarga ham esdalik sovg'alari va diplomlar berildi.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Turizmni rivojlantirish qo'mitasi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, Surxondaryo viloyati hokimligi va boshqa bir qator tashkilotlar homiyligida tashkil etilgan ushbu Respublika tanlovi ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. Yakunida Xalqaro baxshichilik festivali doirasidagi ushbu tanlov g'oliblari e'lon qilindi. Unga ko'ra, "Oqinchilik yo'nalishi" bo'yicha ishtirok etgan Chirchiq davlat pedagogika instituti talabasi Urinbekov Talgat faxrli 1-o'rinni egallab, 5.000.000 so'm mukofot puli bilan taqdirlandi. Tegishli tartibda 2 va

3-o'rinlar ham o'z egalariga topshirilgan bo'lsa, faol ishtirokchilar turli nominatsiyalar bo'yicha tanlovning faxriy yorlig'i va 500 ming so'm pul mukofoti bilan taqdirlandilar. Bundan tashqari, tashkilotchilar musobaqa boshlanishidan oldin baxshi chellenjni yo'lga qo'yishganligi bois, festival davomida ushbu chellenjda g'olib bo'lgan ishtirokchilar bayram tashkil etilgan maydonda o'sha vaqtda Madaniyat vazirining birinchi o'rinbosari bo'lgan O.Nazarbekov tomonidan diplom, suvenirlar hamda pul mukofoti bilan taqdirlandilar. Chellenjda g'olib bo'lganlar:

1. Ijtimoiy tarmoqlarda eng ko'p ko'rilgan video: Zinatin Nuritdinov va Quvanish Seytimbetov

2. Eng faol targ'ibotchi: Boburjon Nodirov

3. Eng zamonaviy baxshi: Axror Xushvaqto'v

4. Eng yosh baxshi: G'olibjon Oripov

I Xalqaro Baxshichilik festivalining rasmiy ochilish marosimi 2019-yilning 6-aprel kuni bo'lib o'tdi. Unda ishtirok etish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, hukumat a'zolari, xorijiy davlatlardan yetib kelgan yuqori martabali mehmonlar, san'atkorlar va ommaviy axborot vositalari ishtirok etishdi. Prezident ayni paytda o'zbek milliy folklor san'atini chuqur o'rganib, uni dunyo miqyosida keng targ'ib etib kelayotgan

<sup>2</sup> G.B.Lolayeva-Surxondaryoda xalq dostonchilik an'analari va ularning etnografikasi-SCIENTIFIC PROGRESS VOLIME 702 bet.

<sup>3</sup> Tursunov S.N., Pardaev T., Begimqulov O. O'zbek milliy kurashi tarixi va an'analari. – Termiz: «Surxon nashr» nashriyoti. 2015. – B. 58.

koreyalik Ing-Yong O, germaniyalik Karl Rayxil, turkiyalik Fikrat Turkman, Selami Fidakor singari xorijiy olimlarga samimiy minnatdorchilik bildirdi hamda ushbu festival dunyodagi eng nufuzli san'at anjumanlari qatoridan mustahkam o'rin egallashiga ishonch bildirdi.

Festivalning asosiy tadbirlari o'tkazilgan maydondagi etnografik shaharchalarda mehmonlar yurtimiz hududlariga xos san'at va hunarmandchilik buyumlari ko'rgazmalari, milliy qadriyatlarimiz va pazandalarimiz mahorati bilan yaqindan tanishdi. Surxondaryo viloyatining tarixiy obidalari, muqaddas qadamjolari, betakror tabiati va boshqa diqqatga sazovor joylariga ekskursiyalar uyushtirildi. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining chet ellarda O'zbekiston madaniyat kunlarini tashkil etish rejasiga asosan 2022-yilning 11-may sanasida Rossiya davlatining Moskva hamda Sankt-Peterburg shaharlarida "O'zbekiston madaniyati kuni" bo'lib o'tdi. Ushbu tadbirga markazning Xalqaro aloqalarni rivojlantirish bo'limi tomonidan taniqli baxshilardan "Shuhrat" medali sohibi Baxtiyor baxshi Ortiqov ishtiroki ta'minlandi.

2022-yilning 5-6 avgust sanalarida Qodir baxshi Rahimov tavalludining 85 yilligi oldidan "BAXSHILAR IZIDAN" nomli ekspeditsiyamiz Avstriyalik fol'klor tadqiqotchisi "KultEurasia" nodavlat tashkilotining asoschisi Daniellaxonim Liebert, Respublika baxshichilik san'ati markazi va QADRIYATFILM bilan hamkorlikda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani Xo'jamahmud qishlog'ida bo'lib, Qodir baxshining avlodlari bilan ijodiy ekspeditsiya uchrashuvi tashkil etildi

2022-yil 11-noyabr kuni Samarqandda Turkiy davlatlar tashkiloti sammiti bo'lib o'tdi va Respublika baxshichilik san'ati markazi tomonidan baxshilar ishtiroki ta'minlandi.

2022-yil 30-sentabr kunlarida Turkiya davlati Bursa shahrida bo'lib o'tgan "4-Dünya Göçebe Oyunları" xalqaro sport o'yinlari doirasida bo'lib o'tgan tadbirlarga markaz tomonidan baxshilar ishtiroki ta'minlandi. Shu yili tashkil etilgan bir qator davlat tadbirlarda bo'lim xodimlar tomonidan baxshilarning ishtiroki ta'minlandi. Jumladan Turksoy tashkiloti taklifiga asosan Turkiyaning Manavgat-Side shahrida milliy musiqa va raqs festivali doirasida o'zbek baxshichilik san'ati bo'yicha mahorat darslarini tashkil etish maqsadida O'zbekiston delegatsiyasi Turkiya Respublikasida xizmat safarida bo'ldi. 25-29 iyul kunlari Festival doirasida Manavgat-Side shahridagi Yoshlar markazida O'zbekistonlik yosh ijodkor-baxshilar "Shuxrat" medali sohibi Rasulbek Abduraxmonov va Dilmurod Gulmurodov ishtirokida mahorat darsi va Turksoy tashkilotiga a'zo davlatlardan tashrif buyurgan yosh ijodkorlar o'rtasida davra suhbatini tashkil etildi.

Yurtboshimizning 2018- yil 14- mayda "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori Xalqimizning milliy o'zligini, qadimiy tarixi va tilini, uning hayot tarzi, an'ana va urf-odatlarini o'zida mujassam etadigan, umumbashariy madaniyatning ajralmas qismi sifatida tan olingan baxshichilik san'atini, atoqli baxshi-shoirlarimiz, folklorshunos olimlarimizning fidoyi mehnatini dunyo e'tirof etishiga sabab bo'ldi.

2023-yilning aprel oyida Guliston shahrida bo'lib o'tadigan III Xalqaro baxshichilik san'ati festivaliga tayyorgarlik jarayonlari boshlandi.

Bugun Respublika baxshichilik san'atiga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida xalq og'zaki ijodini targ'ib etish hamda, Xalqaro festivalda munosib ishtirok etish yuzasidan konferensiya bo'lib o'tdi. Tadbirda RBSIMI direktori D.Choriyev, RBM direktori U.Norboyev, Qozoq milliy universiteti professori Amantay Sharif, folklorshunos olim T.Pardayevlar ishtirok etishdi.

Festivalning tantanali yopilish marosimida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri B.Sayfullaev so'zga chiqib, tashrif va tashkilotchilik uchun barchaga minnatdorchilik bildirib o'tdi. Tadbir davomida yurtimiz san'at ustalari, baxshilar va yosh ijrochilar tomonidan katta konsert dasturi namoyish etildi.

**Foydanilgan adabiyotlar ro'yhati:**

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to'g'risida" gi PQ-3990-son qarori 2018.1.11.
- 2.G.B.Lolayeva-Surxondaryoda xalq dostonchilik an'analari va ularning etnografikasi- SCITNTIFIC RPOGRESS VOLIME 702 bet.
- 3.Tursunov S.N., Pardaev T., Begimqulov O. O'zbek milliy kurashi tarixi va an'analari. – Termiz: «Surxon nashr» nashriyoti. 2015. – B. 58.
- 4.T Qo'ziyev -O'zbekiston respublikasi san'at arbobi professor Baxshichilik san'ati umuminsoniy qadriyat.
- 5.Ochildiyevna, N. P. (2022). The Role of International Relations in Improving the Quality of Higher Education (On the Example of Activities of Surkhandarya Higher Education Institutions). Zien Journal of Social Sciences and Humanities, 8, 178-182.
6. <https://yuz.uz/uz/news/ii-xalqaro-baxshichilik-sanati-festivali-kundaligi>

INNOVATIVE  
ACADEMY